



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 25-noyabr

138-5-0-F/24

Navoiy viloyati hokimligi

Viloyat hududida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni yanada samarali tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuning 5-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarning samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qaroriga, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 29-avgustdagi 16-sonli bayonnomasi 2-ilovasi 6-bandi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-, 211-moddalariga asosan:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 29-avgustdagi 16-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi" ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida 2024-yilning 13-dekabr kuniga qadar "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" profilaktik tadbiri o'tkazilsin.

3. Quyidagilar:

2024-yilning 13-dekabriga qadar "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" profilaktik tadbiri davomida xodimlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarni (seminar-trening) o'tkazish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

targ'ibot tadbirlarga (seminar-trening) tavsiya etilgan mavzular ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat sudi va viloyat prokuraturasiga:

hududlar va sohalar kesimida o'tgan yilga nisbatan 9 oylik korrupsiyaviy jinoyatlar va huquqbazarliklarni tahlil etish orqali ularning sabablari va omillarini

aniqlash, tahlil natijalariga ko‘ra, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan soha va hududlarda korrupsiyani minimallashtirish yuzasidan;

korrupsiyaviy jinoyatlarga oid o‘tgan yilga nisbatan 9 oylik statistik ma’lumotlarni, tugallangan jinoyatlar bo‘yicha sud hukmlari materiallarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga oid murojaatlarini o‘rganish, tahlil qilish hamda muammo va kamchiliklarni o‘rganish orqali asoslantirilgan takliflar ishlab chiqish tavsiya etilsin.

5. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O. Rabbimov), Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish viloyat hududiy boshqarmasi (A. Muhammadiyev) hokimliklarda va uning bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda davlat xaridlarini o‘tkazishda (tender va eng yaxshi takliflarni tanlash) davlat xaridlari va raqobatga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilganlik holatini o‘rganish, xususan davlat xaridlarida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini oldini olish, o‘rganish natijalariga ko‘ra mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif kirlitsin.

6. “Yuksalish” umummilliy harakati viloyat bo‘linmasiga (A. Jalilov) viloyat adliya boshqarmasi bilan birgalikda tadbir davomida viloyat hududida fuqarolar va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga nisbatan munosabati ijtimoiy so‘rovnama o‘tkazish orqali o‘rganish tavsiya etilsin.

7. Viloyat adliya boshqarmasi (U. Abdullayev):

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan seminarlar va “davra suhbatlari” tashkil etish orqali manzilli huquqiy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazsin;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga, fuqarolarni qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasizlik munosabatini singdirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari olib borsin;

viloyat prokuraturasi, ichki ishlar bosh boshqarmasi, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari, viloyat teleradiokompaniyasi bilan birgalikda “Korruptsiya sohasidagi qonunchilik yangiliklari”, “Korruptsiya – jamiyat kushandasasi”, “Korruptsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimiz”, “Biz korruptsiyaga qarshimiz!” kabi mavzularda ijtimoiy va animatsion videorolik hamda huquqiy targ‘ibot materiallari tayyorlasin hamda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga yetkazib borsin;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining viloyat hududiy boshqarmasi (F. Tuxtayev) hamda viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (R. Hayitova) bilan birgalikda 9-dekabr “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan viloyat hududidagi ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlar o’tkazsin.

8. Yoshlar agentligi viloyat boshqarmasi (U. Baxromov), Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi (J. Jumayev) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining viloyat hududiy boshqarmasi (F. Tuxtayev) hamda viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (R. Hayitova) bilan birgalikda:

barcha ta’lim muassasalari va mahallalarda korrupsiyaning jinoyat ekanligini va unga nisbatan toqatsiz bo‘lish g‘oyasini yoshlar o‘rtasida “tengdosh-tengdoshga” tamoyili asosida targ‘ib qilish ishlarini tashkil etish;

“Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish biz – yoshlarning kundalik hayot tarziga aylanishi shart” mavzusida rasmlar, insholar hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida “Munozara” tanlovlарini tashkil etish choralari ko‘rsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228 sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 29-avgustdagи 16-sonli bayonnomasi 1-ilovasi 12-bandi bo‘yicha ish joyidan ajralmagan holda masofaviy tarzda O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasida malaka oshirishlari ta’mnlansin.

10. Shahar va tuman hokimliklari:

uch kunlik muddatda oylik doirasida o‘zları rahbarlik qilayotgan tizim tashkilot xodimlari va jamoatchilikka korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaat yo‘llasin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin;

shahar va tuman hokimliklarida 1-ilova asosidagi korrupsiyaning oldini olish hamda xodimlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirishga qaratilgan seminar-treninglar 2-ilovadagi tavsiya etilgan mavzular bo‘yicha o‘tkazilsin;

seminar-treninglar doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda natijasi haqidagi ma’lumot viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh. Raubayeva)ga taqdim etilsin;

“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlangan ijtimoiy roliklarni markaziy ko‘chalar va jamoat joylarida joylashgan bilbord va video ekranlarda joylashtirib borilsin.

11. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Raubayeva), viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu’basi (F. Xasanov), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (D. Mamarajabov), viloyat prokururasi, viloyat sudi, viloyat adliya boshqarmasi hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida joriy yilning noyabr oyida viloyat hokimligida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazilsin.

12. Viloyat teleradiokompaniyasiga (G’. Sultonov) korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot materiallari, ijtimoiy, animatsion va boshqa videoroliklarni namoyish etib borish tavsiya etilsin.

13. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (D. Mamarajabov), “Do‘stlik bayrog‘i ” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati (B. Umarov)ga ommaviy axborot vositalari orqali viloyat hududidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

14. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rnbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 25-noyabrdagi
138-5-0-F/24-son farmoyishiga
1-ilova

2024-yilning 13-dekabriga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” profilaktik tadbiri davomida xodimlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirish hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarni (seminar-trening) o‘tkazish

R E J A S I

T/r	Sohalar	O‘tkazish muddati	O‘tkazishga mas’ullar
1	Investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo‘yicha		Viloyat hokimining o‘rinbosari – Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig‘i E.G‘affarov, viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu’basi (F.Xasanov), viloyat prokururasi, viloyat sudi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi, adliya boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari
2	Qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha	2024-yil noyabr	Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari E.Kamolov viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu’basi (F.Xasanov), viloyat prokururasi, viloyat sudi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi, adliya boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari
3	Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha		viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari J.Xodjayev, viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shu’basi (F.Xasanov), viloyat prokururasi, viloyat sudi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi, adliya boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari

T/r	Shahar va tumanlar nomi	O‘tkazish*		Shahar va tumanlardan ma’ruza bilan o‘tkazishga mas’ullar
		sanasi	vaqtি	
1.	Navoiy shahar		10:00	
2.	Zarafshon shahar	19-noyabr	14:00	hokimlik, prokuratura, Jinoyat ishlari bo‘yicha sud, Ichki ishlari boshqarmasi,
3.	G‘ozg‘on shahar		16:00	Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tuman (shahar)

	Karmana tumani	20-noyabr	10:00	bo‘limi, adliya bo‘limi
4.	Konimex tumani		14:00	
5.	Qiziltepa tumani	21-noyabr	10:00	
6.	Navbahor tumani		14:00	
7.	Nurota tumani	22-noyabr	10:00	
8.	Tomdi tumani		14:00	
9.	Uchquduq tumani	25-noyabr	10:00	
2.	Xatirchi tumani		14:00	
3.				

Izoh: *vaziyatdan kelib chiqib kelishiladi.

Tuman va shahar hokimliklarining Tashkiliy-kadrlar guruhi tomonidan tashkillashtirilib, hokimlik xodimlari ishtirok etadi. O‘tkazilgan seminar trening (hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtiriladi) natijasi to‘g‘risidagi bayonnomma (fotolavhalar bilan) tuman va shahar hokimliklari tomonidan viloyat hokimligiga taqdim etiladi.

-

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 25-noyabrdagi
138-5-0-F/24-son farmoyishiga
2-ilova

**2024-yilning 13-dekabriga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi”
profilaktik tadbiri davomida xodimlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirish
hamda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarga (seminar-
trening) tavsiya etilgan mavzular**

RO‘YXATI

T/ r	Mavzular nomi	Komponentlar
1.	Korrupsiya va poraxo‘rlik tabiati	Korrupsiya, poraxo‘rlik (korruption harakatlar) tushunchasi, shakllari va sabablari
2.	Korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va mexanizmlari
3.	Korrupsiyag a qarshi kurashish yo‘llari	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar mazmun-mohiyati viloyat hokimining quyidagi qarorlarida belgilangan vazifalar: - 2024-yil 6-iyuldaggi 188-5-0-Q/24-sonli; - 2024-yil 21-iyundagi 170-5-0-Q/24-sonli;
4.	Korrupsiyon harakatlar uchun javobgarlik	O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari
		Korrupsiyon harakatlar uchun intizomiy javobgarlik
		Korrupsiyon harakatlar uchun jinoiy javobgarlik
5.	Korrupsiyag a qarshi fuqarolik jamiyati	Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurash vositasi sifatida
		Fuqarolarning huquqiy madaniyatini takomillashtirish; Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish
6.	Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida	Davlat xizmatida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari, ularni bartaraf etish chorralari bo‘yicha (https://aca.uz/storage/UIEPilxzzW3sLUvn4SqlwqVK6RtbRHmetaMS4g0KPRgdC70YPQsdC40Lkg0pvRntC70LvQsNC90LzQsC5wZGY=-.pdf)

		Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish (https://aca.uz/storage/ZoLyKmqUfDvujCj5F42JT9A6SWdnPWmetaMi4g0KPRgdC70YPQsdC40Lkg0YLQsNCy0YHQuNGP0LvQsN GAICjQutCw0LfRg9G B0LvQsNGAKS5wZGY=-.pdf)
--	--	---

Izoh: Mavzular dolzarbligiga qarab o'zgarishi mumkin.